

• qorshağan ortalıq faktorlarınıń unamlı hám keri tásirin esapqa alǵan halda patologiyalıq ózgerisler (sportshılarda - normasınan joqarı shuǵıllanıw, jaraqatlar hám basqalar) rawajlanıwı ushın qáwip toparlarında profilaktika ilajların sheber islep shıǵıw;

• hár túrli tábiyyıy hám geografiyalıq aymaqlarda jasawshı adamlardıń awqatlanıw, zat hám energiya almasıwınıń ózine tán qásiyetlerin, tábiyyıy cikllar hám meteorologik faktorlardıń insan organizmine hám sportshıǵa tásirin esapqa alǵan halda fizikalıq iskerlikke maslastırıw ózgesheliklerin túsiniw;

• tábiyyıy, ekologiyalıq hám adaptogen ortalıq faktorlarınıń birgeliktegi tásirinde maslasıw hám tikleniw mexanizmlerin biliw, awqatlanıw mashqalaların durıs sheshiw zárúr [8:1884-1885].

Sport iskerligi usı iskerlikti orınlaw ushın juwapker bolǵan barlıq funktsional sistemalardıń jumıs kúshi menen birge keledi hám bulshıq etlerdiń jumısın energiya menen támiyinlew deregi bolıp esaplanadı. Fizikalıq shınıǵıwlar klassifikaciyası, dinamikalıq hám statikalıq jumıslardıń ózgeshelikleri, energiya támiynatı túrleri hám basqalar haqqında sonı aytıw múmkin, bulshıq etler júklemesin nátiyjeli orınlaw ushın zárúr bolǵan fiziologiyalıq funkciyalardıń ózgeriw dárejesi onıń iskerlik dárejesi menen belgilenedi.

Ótkerilgen tájiriyyeden texnogen pataslangan aymaqlardaǵı óspirimlerde sırtqı dem alıw funkciyasınıń tómennlewı anıqlandı, bul atmosfera hawasınıń ximiyalıq pataslanıw sharayatında kóbirek tómennleydi. Júrek-qan tamır sistemasınıń funktsional jaǵdayı kórsetkishleri 1-kestede keltirilgen.

1-keste. Tekserilgen óspirimlerdeń júrek-qan tamır sisteması funktsional jaǵdayı kórsetkishleri (M ± m)

Ekologiyalıq toparı	jumıs	SAB, mm rt.	DAB, mm rt.	JUI, soq/min	ÓTS, l/min	Koeff. bal
Nókis qalası	E	120,6±2,15	76,8±1,61	76,7±2,14	4,8±0,14	1,62±0,04
	H	116,6±1,94	75,2±1,35	76,5±1,91	4,7±0,12	1,57±0,05
Shomanay rayoni	E	125,9±2,01	83,5±1,62*	76,8±2,61	4,6±0,18	1,75±0,04*
	H	117,0±2,06	74,8±1,55	76,6±1,73	5,1±0,17	1,55±0,03

Túsindirme: * - statistikalıq tárepten qadaǵalaw menen parqı úlken (p < 0, 05).

Kórsetilgen maǵlıwmatlarda II hám III tájiriyye toparı jaslarındaǵı sistolik qan basımı (SAB) toparınıń ortasha kórsetkishleri qadaǵalaw toparındaǵı (ITT) uqsas kórsetkishlerden statistikalıq tárepten birqansha joqarı. Topardıń diastolik qan basımınıń (DAD) ortasha bahaların analiz qılıwda III tájiriyye toparındaǵı óspirimler hám qızlarda hám II tájiriyye toparındaǵı óspirimlerde statistikalıq tárepten sezilerli dárejede kóbeyiw; II tájiriyye toparınan bolǵan óspirimlerde I tájiriyye toparına salıstırǵanda sezilerli dárejede kemeyiw anıqlandı. II, III tájiriyye toparında arterial gipertenziyalı óspirimler sanı qadaǵalaw toparına salıstırǵanda kóbeyiw tendenciyası baqlanıp atrı (tıyisli túrde 1,21; 3,28 teńdey). Solay etip, hár qıylı ekologiyalıq zonalar boyınsha alınǵan nátiyjelerdi jáne de analiz qılıw Qaraqalpaqstanda jasawshı óspirimlerdeń kesellik kórsetkishleri qorshağan-ortalıq faktorlarınıń tásirine baylanıslılıǵın tolıq kórip shıǵıwǵa múmkinshilik beredi.

Ádebiyatlar

1. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2021-jıl 30-dekabrdegi “Respublikada kóklemzarlastırıw jumısların jedellestiriw, terekler qáwipsizligin jáne de nátiyjeli shólkemlestiriw ilajları haqqında”ǵı PF-46-sanlı Pármanı.
2. Petrushkina, N. “Sport ecology” – a qualified in the field of physical education and sport science training program. / N. Petrushkina, O. Makunina, O. Kolomietz // Asta Kinesilogiae Universitatis Tartuensıs : Seventh Conference of Baltic Society of Sport Sciences, May 7-9, 2014. Tartu, Estonia. –Tartu, 2014. – P. 140.
3. Матвеев Л.П. “Основы спортивной тренировки”. -М.: «Физкультура и спорт», 1977. –С. 280.
4. Платонов В.П. “Общая теория подготовки спортсменов в олимпийском спорте”. –Киев: «Олимпийская литература», 1997. –С.284.
5. Селе Г. “Очерки об адаптационном синдроме”. - Москва: 1960 “Стресс жизни” цит.по –С. 71-72.
6. Атаджанян Н.А., Турханов А.И., Шендеров Б.А. “Этюды об адаптации и путях сохранения здоровья”. -Москва: “Сирин”, 2002. –С.156.
7. Керимов Ф., Умаров М. “Спортда прогноллаштириш ва моделлаштириш”. –Т.: ЎзДЖТИ нашриёт-матбаа бўлими, 2005. 125-б.
8. Ибрагимов А.Т. Влияние экологических факторов при занятиях физической культурой и спортом. Текст: непосредственный. // Молодой учёный. 2015. № 11 (91). - С. 1884-1885.

REZYUME. Maqolada sportchi organizmiga atrof-muhit va ekologik omillarning ta’siri, tabiatning tabiiy sog’lomlashtiruvchi vositalaridan foydalanishning zarur omillari bo’yicha tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье описаны рекомендации по влиянию природных факторов на организм спортсмена, необходимые факторы использования природных целебных средств.

SUMMARY. The article describes recommendations on the influence of environmental and environmental factors on the athlete’s body, the necessary factors for the use of natural healing agents.

HARAKATLI O’YINLARNI TASHKIL QILISH SHAKLLARI VA METODIKASI

E.Saparbaev – stajyor o’qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so’zlar: milliy o’yinlar, jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish, ko’nikma, o’qituvchi.

Ключевые слова: национальные игры, физическое воспитание, физическое развитие, навыки, преподаватель.

Key words: folk games, physical education, physical development, skill, teacher.

Harakatli o’yinlar maktabda jismoniy tarbiya metodi va vositasi sifatida jismoniy tarbiya darsida hamda sinfdan tashqari mashg’ulotlarda keng qo’llaniladi. Harakatli o’yinlar jismoniy tarbiya bo’yicha maktab dasturiga mos ravishda 1-9-sinflarda gimnastika, yengil atletika, sport o’yinlari, kurash va suzish bilan birga qo’shib olib boriladi. Jismoniy tarbiya darslarida harakatli o’yinlar dastur tal-

ablariga mos ravishda ta’limiy, tarbiyaviy va sog’lomlashtirish vazifalarini hal etishi uchun foydalaniladi.

Bu vazifalar bir-biri bilan o’zaro chambarchas bog’liqdir. Ularni hal etishda o’quv tarbiyaviy jarayonning har xil tomonlarini hisobga olish kerak. Xuddi shunday, «Kim chaqqon» o’yinini o’tkazishda chap berib yugurish

tezligini takomillashtirish uchun kichik maktab yoshidagi bolalarda bir vaqtning o'zida dadillikni, ziyraklikni va o'zining kuchiga ishonishni rivojlantirish mumkin. Jismoniy tarbiya darslarida o'tkaziladigan o'yinlarni boshqa mashg'ulot shakllaridan farqi shundaki, bunda diqqatni eng muhimi o'yinning ta'limiy va sog'lomlashtirish tomoniga, shuningdek, jismoniy tarbiya sifatiga ham qaratish kerak. Dars uchun o'yin tanlashda, darsning vazifasini, o'quv materialini, o'yinga kiruvchi harakat turlarini, o'yinning fiziologik yuklamasini, ishlash uchun shart-sharoitni hisobga olish zarur.

Har bir o'yinda o'yin qatnashchilaridan bilim va malakalarini namoyon qilishni talab qiladi, uni o'yin jarayonida takomillashtiradi. Elementar o'yinlarga maxsus tayyorgarlik talab qilinmaydi. Biroq murakkab harakatlardan tashkil topgan o'yinlar ham bor. Masalan quyidagi o'yinlarni («To'p sardorga», «To'p o'rtadagiga») o'quvchilarga taklif qilish mumkin emas, agarda ular to'p oshirishni, uni olib olishni bilmasa va o'yin jarayon bilan to'qnashishda, yaxshi reaksiyaga harakat koordinatsiyasini va boshqa zarur bo'lgan sifat va malakalarini egalab ololmaydi.

Shug'ullanuvchilar o'yinga kiritilgan murakkab harakatlarni maxsus mashqlar yordamida o'zlashtiradilar. Istisno tariqasida avvaldan o'rgatishni talab qilmaydigan elementar va tabiiy harakatlar bo'lishi mumkin. Masalan, «Bo'ri zovurda» o'yinida yugurib kelib uzunlikka sakrash tabiiy chiqadi. Jismoniy tarbiyaning boshqa vositalari o'rtasida o'yinning o'rni yoki joyi aniqlansa, ular o'rtasidagi ketma-ketlik metodik jihatdan to'g'ri bo'ladi. Bu esa qo'yilgan vazifani yaxshilab hal etilgan darsning zichligini oshirishga va mashqni to'g'ri taqsimlashga yordam beradi. Chaqqonligi bir harakatdan ikkinchi harakatga to'g'ri va sifatli o'tish demakdir. Shunday qilib, yugurish, sakrash bilan bajariladigan o'yindan keyin yoki qarshilik ko'rsatish bilan mashq o'tkazish murakkab chaqqonlik, muvozanatni saqlaydigan, aniq harakatni talab qiladigan, qarshilik ko'rsatish bilan mashqni o'tkazish tavsiya qilinmaydi [1].

Agar darsning asosiy qismi o'yinga bag'ishlangan bo'lsa, bunda ko'proq harakatli o'yinlar bilan kamroq harakatlanadigan o'yinlar almashlab olib boriladi, shu bilan birga harakatning xarakteri bo'yicha turli-tuman o'yinlar tanlab olinadi. Harakatli o'yinlarni darsning hamma qismlariga kiritish mumkin. O'yin mazmuni shug'ullanuvchilarning tarkibiga va vazifasiga bog'liqdir. Darsni tayyorlov qismiga kam harakatli va murakkab bo'lmagan o'yinlarni kiritish tavsiya qilinadi, bu o'quvchilarning diqqatini jamlashga («Guruh, tik tur!», «Og'ma tayoqq») yordam beradi, bular o'rtacha harakatdagi o'yinlar bajariladigan umumrivojlantiruvchi xarakterdagi mashqlardir («Taqiqlangan harakat»). Darsni asosiy qismida tez yugurish, chap berish yoki aldab o'tish, chidamlilik, to'siqni oshib o'tish, har xil sakrashlar, qarshilik ko'rsatish, kurash, qo'zg'aluvchan va qo'zg'almaydigan nishonga uloqtirish bilan bajariladigan harakatli o'yinlardan foydalaniladi.

Darsning yakuniy qismida o'rtacha kam harakatchanlikka oid o'yinlar o'tkaziladi, u murakkab bo'lmagan o'yin qoidalarini bilan diqqatni jamlash uchun o'tkaziladigan o'yinlar, darsni asosiy qismidagi tezlik bilan beriladigan yuklamadan keyin faol dam olishga yordam beradi («Kim keldi», «Guruh, tik tur!»).

Jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlarni o'tkazish metodikasining o'ziga xosligi darsning zichligiga to'g'ri keladiganlarini saqlab qolish zarurligi va qisqa muddatlilik bilan bog'liqdir. Vaqtdan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishda va o'yinni o'tkazish metodikasini to'g'ri tanlash esa darsda zarur bo'lgan motor zichlikka erishiladi. Shunga erishish uchun barcha o'yinda qatnashuvchi o'yinchilar taxminan bir xil yuklama oladilar. O'yinda shu bilan bog'liq bo'lgan barcha shug'ullanuvchilarning faol qatnashishlari uchun teng sharoit yaratib berishga

harakat qilish kerak. Odatda, harakatli o'yinlar frontal metod bilan o'tkaziladi. O'yin qatnashchilarining barchasi 2-3 guruhlariga bo'linadilar va har bir guruhda bitta o'yin mustaqil ravishda o'tkaziladi.

O'yinda guruhga oid usul ham qo'llaniladi. Rahbar o'yinchilarni ikki guruhga bo'lib, ularga har xil o'yinlar beradi. Odatda, 6-8- sinflarda guruhga oid usuldan turli-tuman ta'limiy vazifalarni hal etish uchun foydalaniladi. Masalan, qiz bolalarga «O'yinboshiga to'p berma» o'yini (basketbol o'yiniga tayyorlash uchun), o'g'il bolalarga «Aylanadan tashqarida» (futbol o'yiniga tayyorlaydigan) o'yinni taklif qilishadi. O'g'il bolalarga chidamlilik va kuchni rivojlantirishni tarbiyalaydigan, qizlarga esa koordinatsion qobiliyatni tarbiyalaydigan o'yin beriladi. O'yinga ma'lum bir vaqtni belgilash shart. Chunki o'ynovchilarning charchashi, o'yinni yetarli darajada o'zlashtirmaganligi va boshqa sabablar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Darsda o'tkaziladigan o'yin o'quvchilarni sog'lomlashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Shuning uchun o'yinlar imkon qadar maydonchada o'tkazilgani ma'qul. Agar o'yin bino ichida o'tkaziladigan bo'lsa, unda ijobiy ta'sir ko'rsatadigan gigiyenik sharoit yaratilishi kerak. Tibbiy ko'rikdan keyin asosiy guruhga kiritilgan bolalar sinf uchun jismoniy tarbiya bo'yicha dasturda berilgan barcha harakatli o'yinlarda qatnashishlari mumkin. Maxsus tibbiy guruhga ajratilgan bolalar o'yinda faol qatnashish istaklarini bildirganliklarini hisobga olmasdan ularning harakatini cheklash zarur. Ularga harakat qilishni talab qilmaydigan yoki o'yin vaqtini qisqartirish nafsoniyatiga tegmaydigan rollarni berish kerak. Shuningdek, ularni hakamning yordamchisi va ochkolarni hisoblaydigan sifatida jalb qilish mumkin. Shu bilan bir vaqtda zaif bolalarning salomatligini mustahkamlash uchun ularni kuch, imkoniyati, yetadigan o'yinlarga jalb qilish kerak.

Jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlar o'quv yilining har bir choragiga o'qituvchi tomonidan qo'yilgan vazifalarni hisobga olgan holda butun o'quv yili bo'yicha rejalashtiradi. Rejalashtirishda o'quv yili bo'yicha tuzilgan dasturda taklif qilingan o'yin ro'yxatiga amal qilish kerak. O'qituvchi maktabda ishlash sharoitidan kelib chiqqan holda o'yin ro'yxatiga qo'shimcha o'zgartirishlar kiritishi mumkin: shug'ullanuvchilarning milliy tarkibi, geografik sharoiti, tayyorgarligiga, o'yinda kerakli jihozlarni mavjudligiga va boshqalar. O'yin uchun vaqt dasturda beriladi. Biroq ishning sharoitidan va o'rgatish vazifalaridan kelib chiqqan holda ayrim o'zgarishlar kiritish mumkin. O'quv yiliga mo'ljallangan o'yinlarni, barcha o'quv materialini rejalashtirishni hisobga olgan holda choraklar bo'yicha taqsimlab chiqish kerak. O'zbekiston Respublikasi sharoitida maktablarda o'yinlar 1, 2 va 4-chorakda maktab maydonchasida o'tkaziladi, shuning uchun rejaiga ko'ptokni uzoqqa uloqtirish, har xil masofalarga yugurish va o'yin-estafetalarini kiritilishi mumkin. 3-4-sinflardan boshlab 1 va 4-choraklarda o'quv materialining asosi yengil atletika mashqlaridan tashkil topgan bo'lib, harakatli o'yinlar faqat alohida yengil atletika malakalarini mustahkamlaydi va takomillashtirishga yordam beradi. Ana shu maqsadda tez yugurish, to'siqlardan oshib o'tish, sakrash va uloqtirish bilan estafetalar o'tkaziladi.

Mashg'ulotlar ikkinchi chorakning yarmi va uchinchi chorakda bino ichida yoki sport zalida o'tkaziladi, shuning uchun ko'p joyni talab qilmaydigan o'yinlar rejalashtiriladi. Bu vaqtda o'quv materiallarining asosini gimnastika mashqlari tashkil qiladi, lekin harakat koordinatsiyasini tarbiyalaydigan, fazoni mo'ljalga oladigan, sezgi ritmi muvozanat saqlash malakalarini rivojlantiradigan va mustahkamlaydigan o'yinlarni o'tkazish foydalidir. To'rtinchi chorak va o'quv yilining oxirida nazorat mashqlari o'tkaziladi. 1-2- sinf o'quvchilari uchun nazorat mashqlari o'quvchilarning uyushqoqligini, merganligini, harakat reaksiyasi tezligini va boshqa sifat va malakalarni namoyon qiladigan o'yinlar bo'lishi mumkin. Shuningdek, nazorat

topshiriqlarini egallashga tayyorlaydigan va mashqlar bilan bajariladigan o'yinlardan ham foydalanish mumkin. O'yinlar davom etishi va ular vazifalariga bog'liq bo'lgan holda choraklar bo'yicha taqsimlanadi [2:23].

Yangi o'yinlarni asosiy 1, 2, 3-choraklar oxirida o'rganib oladilar, 1-chorakning boshida o'tgan o'quv yilida o'rganilgan o'yinlarni o'zgartiradilar va mustahkamlaydilar 4-chorakda esa ushbu o'quv yilida o'tilgan o'yinlar murakkablashtiriladi va mustahkamlanadi. Choraklar bo'yicha rejalashtirilganda, xuddi shunday darslar ham o'yinni o'tishi va takrorlanishi ketma-ketligini ham nazarda tutishi kerak. O'quv yilining boshida har bir sinfda ko'proq yengil o'yinlar o'tkaziladi, oxirida esa u murakkablashtiriladi.

Adabiyotlar

1. Usmonxojayev T.S., Xojaev F. Harakatli o'yinlar. –Tashkent: «Fan», 1992.
2. Shilmanov P. Milliy balalar o'yinlari. –Nókis: «Qaraqalpaqstan», 1996, 23-b.

REZYUME. Maqolada harakatli o'yinlarni tashkil etish shakllari, jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlarni o'tkazish usullari misollar bilan keltirilgan. O'quvchilar o'yin mazmunini yaxshiroq o'zlashtirishi uchun yetakchi mutaxassisning og'zaki tushuntirishi bilan birga uning ayrim harakatlarini bajarib ko'rsatish zarur ekanligi ta'kidlangan.

РЕЗЮМЕ. В статье на примерах представлены формы организации подвижных игр, методы проведения подвижных игр на занятиях по физическому воспитанию. Чтобы учащиеся лучше усвоили содержание игры, необходимо выполнять некоторые ее действия наряду с устным объяснением ведущего специалиста.

SUMMARY. The article presents examples of forms of organizing outdoor games, methods of conducting outdoor games in physical education classes. In order for students to better understand the content of the game, it is necessary to perform some of its actions along with an oral explanation from the leading specialist.

OLIV TA'LIMDA IXTISOSLIK MODULLARINI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH TEXNOLOGIYALARI

H.B.Saypillayeva – o'qituvchi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tayanch so'zlar: ma'ruza, qobiliyat, laboratoriya, material, tizim, dastur, modul, tasvir, bilim, imkoniyat, ehtiyoj.

Ключевые слова: лекция, способность, лаборатория, материал, система, программа, модуль, образ, знание, возможность, потребность.

Key words: lecture, ability, laboratory, material, system, program, module, image, knowledge, opportunity, need.

Modulli o'qitishning maqsadi moslashuvchan o'quv mazmunini ta'minlash, didaktik tizimni o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish orqali talabning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va asosiy tayyorgarlik darajasiga moslashtirish orqali individual o'quv rejasiga muvofiq talaba shaxsini rivojlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratishdir.

Modulli o'qitishning mohiyati talabning individual modullardan (modulli birliklar) tashkil topgan individual dasturni o'zlashtirish bo'yicha nisbatan mustaqil ishi hisoblanadi. Har bir modul to'liq professional harakatni ifodalaydi, uning rivojlanishi bosqichma-bosqich operatsiyalar orqali davom etadi.

Ixtisoslik modullari dasturi murakkab didaktik maqsadni amalga oshiradi, u didaktik maqsadlarni birlashtirishni o'z ichiga oladi, ularning har biriga erishish muayyan modul bilan ta'minlanadi.

Modulning mazmuni qisman didaktik maqsadlarga mos keladigan ta'lim elementlariga tuzilgan va har bir o'quv elementi kasbiy faoliyatning o'ziga xos funksional elementi bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Modulli o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- didaktik tizimning har bir komponentini va uning modulli dastur va modullarda vizual tasvirini majburiy o'rganish;
- o'quv jarayonini to'g'rilash imkonini beruvchi o'quv mazmunini aniq tuzilish, nazariy materialni izchil taqdim etish, o'quv jarayonini didaktik materiallar va bilimlarning o'zlashtirilishini nazorat qilish tizimi bilan ta'minlash;
- o'qitishning o'zgaruvchanligi, o'quv jarayonini talabalarning individual imkoniyatlari va ehtiyojlariga moslashtirish.

Har bir modul mustaqil ravishda o'zlashtirilishi mumkin va ularning kombinatsiyasi yakuniy maqsadga erishishga imkon beradi.

Modullar doirasida har bir faoliyat turining nazariy va amaliy jihatlarini kompleks, sinxron o'rganish amalga

O'qituvchi o'quv yilining oxirida o'quv materialining o'zlashtirish sifatini hisobga oladi va kelgusi o'quv yilida uni rejalashtirish uchun tegishli xulosalar chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda bolalar o'yin davomida o'z fe'l-atvori va shaxsiy xususiyatlarini namoyish qiladilar. Bundan esa o'qituvchi ularning turli odatlarini, salbiy va ijobiy qiliqlarini bilib olishi, tegishli tadbirlarni belgilashi, o'yinni muayyan yo'nalishga solib, ularning sofdillik, mardlik, o'rtoqlik sifatlarini, jamoadagi o'z burchini his qilishni tarbiyalashi mumkin. Shu bilan birga, u bolalarga o'yin qoidalarini buzmaganda ijodiy tashabbus ko'rsatishda har jihatdan yordam beradi.

oshiriladi. Bu keraksiz nazariyani "Yo'q qilish" va hajmni haqiqatan ham zarur nazariy bilimlar foydasiga qayta taqsimlash orqali sodir bo'ladi, bu esa kompetensiyalarni o'zlashtirish, ularni tartibga solish va tizimlashtirish imkonini beradi, bu esa pirovardida talabalarning motivatsiyasini oshirishga olib keladi.

Modulli o'qitishda o'quv dasturlarini to'la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali bosqichma-bosqich o'qitish imkoniyati yaratiladi, ya'ni o'qitishni individuallashtirish mumkin bo'ladi. Modulli o'qitishga o'tishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- o'qitishning uzluksizligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;
- o'qitishni jadallashtirish;
- fanni samarali o'zlashtirishga erishish.

Modulli o'qitish fanning asosiy masalalari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar beruvchi muammoli va yo'riqli ma'ruzalar o'qilishini taqozo etadi. Ma'ruzalar talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim. Modul amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, ma'ruzalar bilan birga tuzilishi, ular ma'ruzalar mazmunini o'rganiladigan yangi material bilan to'ldirilishi kerak.

Oliy ta'limda ixtisoslik modullarini o'qitishda fan tarkibidagi modullar orasidagi uzviylikni ta'minlashga, o'qitishni jadallashtirishga, talabalarning bilimini muntazam nazorat qilishga va baholashga qiziqtirish asosida amaliy faoliyatga o'rgatishga hamda o'quv materialini bosqichma-bosqich o'qitish orqali fanni samarali o'zlashtirishga erishiladi.

Oliy ta'limda ixtisoslik modullarini o'qitish samaradorligini oshirish borasida mamlakatimiz olimlari N.X.Avliyov [1] va K.T.Olimov [6]larning pedagogik texnologiyani loyihalash bosqichlari va modulli o'qitish tamoyillarini ishlab chiqish borasidagi izlanishlari, J.G.Yo'ldoshev [5]ning hozirgi pedagogik